

## “Ucell x TBC” AKSIYA QOIDALARI

### I. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Mazkur Qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga oladi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (keyingi o‘rinlarda O‘zR FK deb yuritiladi) 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu qoidalarda ishtirok etish shartlari, Bonuslarni olish tartibi, shuningdek, COSCOM MChJ (Ucell) va “TBC Bank” ATB (Bank) tomonidan tashkil etiladigan qo‘shma Aksiyani tashkil etish va o‘tkazishning boshqa muhim shartlari bayon etilgan).
- 1.2. Ushbu Qoidalar Ucell mobil operatori va Bank mahsulotlari/xizmatlarini O‘zbekiston Respublikasida ommalashtirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbir bo‘lib, aksiyani tashkil etish va o‘tkazish tartibini (bundan keyin “**Aksiya**” deb yuritiladi) tartibga soladi.
- 1.3. Aksiya tashkilotchisi “COSCOM” mas‘uliyati cheklangan jamiyat (“Ucell” savdo belgisi egasi), manzil: 100031, Toshkent sh., V.Vohidov ko‘chasi, 118-uy va “TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki, manzil: 100015, Toshkent sh., Fidokor ko‘chasi, 10B-uy, bundan keyin “Tashkilotchilar” deb yuritiladi.
  - Ucell 24/7 aloqa markazi:
    - +998(93)1800000
    - 8123 (faqat Ucell abonentlari uchun)
  - Bankning 24/7 aloqa markazi:
    - +998(78) 777-27-27
- 1.4. “30 kunga 1 GB internet-to‘plam” (keyingi o‘rinlarda Internet-to‘plam) oluvchisi 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan va Aksiya shartlariga javob berib, Ucell abonent bo‘lgan har qanday jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.
- 1.5. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin emas va Aksiya ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq hech qanday mulkiy xavflarga ega bo‘lmaydilar. Aksiyani o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan to‘lovlar to‘lash bilan bog‘liq emas va Aksiya Bonuslari faqat Tashkilotchilar hisobidan shakllantiriladi.
- 1.6. Aksiya doirasida Prepaid-abonent - abonent raqami (balansi) hisobiga pul mablag‘lari oldindan to‘lanib, keyinchalik ular xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish maqsadida sarflanadigan xizmat ko‘rsatish tizimidagi abonentdir.

### II. AKSIYA SHARTLARI

- 2.1. **Aksiya taklifi**

Aksiya tashkilotchisidan “30 kunga 1 GB internet-to‘plam”  
\*G‘oliblar Internet-to‘plamni boshqasiga yoki naqd pul ekvivalentiga almashtira olmaydi.
- 2.2. **Aksiya muddati:**

Boshlanish sanasi: 2023 yil 1 fevral, soat 00:00 da.  
Tugash sanasi: 2023 yil 31 mart, soat 23:59 da.
- 2.3. **Aksiyada ishtirok etish shartlari:**

Aksiya ishtirokchisi bo‘lishni xohlovchi har bir shaxs bir vaqtning o‘zida quyidagi barcha shartlarni bajarishi kerak:

  - a) Operatorning Prepaid-abonenti va jismoniy shaxs bo‘lishi kerak
  - b) TBC UZ mobil ilovasining ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchisi bo‘lishi kerak
  - c) Aksiyani o‘tkazish davrida TBC UZ mobil ilovasida Ucell mobil telefoni balansini 30 000 so‘mga to‘ldirishi kerak.
- 2.4. **Aksiya o‘tkazish tartibi:**

01.02.23 yil soat 00:00 dan 31.03.23 yil soat 23:59 gacha TBC UZ ilovasi foydalanuvchilari Ucell mobil telefon balansini 30 000 so‘mga to‘ldirishlari kerak.

Operator mablag‘ bilan to‘ldirilgan mobil telefon raqamiga to‘lovni amalga oshirgan kundan boshlab 1 (bir) kalendar kun ichida mazkur to‘lovni muvaffaqiyatli amalga oshirgan Ishtirokchiga 1 Gigabayt miqdoridagi Internet-to‘plamni taqdim etadi.

Ishtirokchi cheklanmagan miqdorda Ucell mobil telefon raqami balansini to‘ldirishi va Aksiya o‘tkazish davrida har bir to‘lov uchun 30 000 so‘mdan Internet-to‘plamga ega bo‘lishi mumkin.

Har bir taqim etilgan Internet-to‘plamning amal qilish muddati taqdim etilgan kundan boshlab 30 kuni tashkil etadi, shuningdek, yangi Internet-to‘plamni taqdim etilishi esa avvaldan berilgan Internet-to‘plamning amal qilish muddatini uzaytirmaydi.

*MUHIM! “Internet-to‘plam” Abonent Internet-to‘plam berilganligi haqida SMS-xabar olgan vaqtdagina taqdim etiladi. Agar Abonent SMS-xabar olmagan bo‘lsa, u holda faol xizmatni tekshirish uchun \*107# USSD so‘rovidan foydalanishni tavsiya etamiz. Agar Internet-to‘plam taqdim etilmagan bo‘lsa, Internet uchun tarifkatsiya Abonentning tarif rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunday holatlarda Ucell ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qayta hisob-kitobni amalga oshirmaydi.*

### **III. BOSHQA QOIDALAR**

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish Tashkilotchi tomonidan o‘tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar hamda aksiyalarda ishtirok etish, shuningdek, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazish, marketing va/yoki statistik va/yoki boshqa tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz) va [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) saytlarida joylashtirilgan Aksiya qoidalarini Ishtirokchi tomonidan to‘liq va so‘zsiz qabul qilishini, shuningdek, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagi O‘RQ-547-sonli Qonuniga muvofiq mobil ilovada ro‘yxatdan o‘tishda Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlashga Ishtirokchining roziligini anglatadi.
- 3.2. Tashkilotchi turli xil aloqa vositalaridan foydalangan holda Ishtirokchi bilan bevosita muloqot qilishi mumkin, shu jumladan (cheklovsiz) pochta jo‘natmalarini yuborishi, Ishtirokchining elektron pochta manziliga (e-mail), mobil telefoniga (SMS-xabar berish) tegishli ma‘lumotlarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining (1998 yil 25 dekabrda 723-I-sonli) “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida reklama tushunchasiga mos keladigan ma‘lumotlarni, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan Tashkilotchining majburiyatlarini bajarish maqsadida yuborishi mumkin.
- 3.3. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi o‘z xohishiga va manfaatlariga ko‘ra harakat qilib, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq (“Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O‘RQ-547-son Qonuniga muvofiq) ularni qayta ishlash (yig‘ish, qayd etish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), foydalanish, tarqatish, taqdim etish, uzatish, shaxsizlantirish, bloklash hamda Tashkilotchi va uning kontragentlari/Hamkorlari tomonidan Ishtirokchining shaxsiy ma‘lumotlarini yo‘q qilishga, shu jumladan avtomatlashtirish vositalaridan va avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimlaridan, boshqa dasturiy vositalardan foydalanishga, shu bilan birga Ishtirokchining shaxsiy ma‘lumotlarini qo‘lda, avtomatlashtirilgan va aralash qayta ishlashga, Tashkilotchilar va uning kontragentlarining ichki tarmog‘i orqali ham, Internet orqali va usiz ham ishlov berilishiga Tashkilotchiga o‘z roziligini beradi. Amaldagi ishlov berish usullari ma‘lumotlar bazasini kerakli mezonlarga muvofiq segmentatsiyalashni o‘z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi.
- 3.4. Ushbu rozilik Ishtirokchi tomonidan unga tegishli har qanday ma‘lumotlarga nisbatan yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan Ishtirokchining shaxsiy ma‘lumotlariga nisbatan har qanday harakatlarni amalga oshirish uchun beriladi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan

holda: familiya, ismi, otasining ismi; jinsi; tugʻilgan yili, oyi, sanasi (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq shaxsni tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari (pasport raqami/ID-karta, uning berilgan sanasi, bergan organning nomi, shuningdek, roʻyxatdan oʻtkazish maʼlumotlari), mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa maʼlumotlar.

- 3.5. Ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchining shaxsiy maʼlumotlarini qayta ishlash uchun jalb qilinuvchi uchinchi shaxslarni tanlash huquqi Ishtirokchi tomonidan Tashkilotchilarga beriladi va qoʻshimcha kelishuv talab qilinmaydi.
- 3.6. Tashkilotchi tomonidan shaxsiy maʼlumotlarga ishlov berish Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.
- 3.8. Aksiya shartlarini bajarmaslik maqsadida ushbu Qoidalar buzilgan taqdirda/nohaq harakatlarni amalga oshirganda va h.k., Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchisini Aksiyada qatnashishdan soʻzsiz chetlashtirishga haqli. Shu bilan birga, Tashkilotchi ushbu Ishtirokchi(lar)ga nisbatan oʻz harakatlariga izoh bermaslik huquqiga ega.
- 3.9. Aksiya Ishtirokchisi u tomonidan notoʻgʻri va/yoki aniq boʻlmagan maʼlumotlar koʻrsatilishi sababli yuzaga kelishi mumkin boʻlgan har qanday salbiy oqibatlar xavfini toʻliq oʻz zimmasiga oladi.
- 3.10. Ushbu ragʻbatlantiruvchi tadbirga muvofiq Aksiyaning natijasi yakuniy hisoblanadi va sudda eʼtiroz bildirilishi mumkin emas.
- 3.11. Aksiya Ishtirokchisi istalgan vaqtda Aksiya Tashkilotchilariga murojaat qilgan holda Aksiyada ishtirok etishni rad etishga haqli.
- 3.12. Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchisi yoki uchinchi shaxsning ushbu Aksiyani oʻtkazish bilan bogʻliq barcha va har qanday sarf-xarajatlarini qoplamaydi.
- 3.13. Tashkilotchi telekommunikatsiya va energiya tarmoqlaridagi nosozliklar, zararli dasturlarning taʼsiri, shuningdek, uchinchi shaxslarning "COSCOM" MChJ va "TBC Bank" ATBning dasturiy taʼminotiga yoki apparat majmuasiga ruxsatsiz kirish va/yoki ularni ishdan chiqarilishiga qaratilgan nohaq harakatlari tufayli oʻz majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar emas.
- 3.14. Agar biron-bir sababga koʻra ushbu Aksiya yoki uning biron bir qismi, kompyuter viruslari bilan zararlantirilgan, nuqsonlar, manipulyatsiyalar, ruxsatsiz aralashuvlar, qalbakilashtirish, texnik nosozliklar yoki Tashkilotchining nazorati ostida boʻlmagan har qanday sabablarga koʻra rejalashtirilgan tarzda amalga oshirilmasa, shuningek, bu bilan Aksiya oʻtkazilishini, uning xavfsizligini, halolligini va yaxlitligini notoʻgʻri talqin qilib yoki unga taʼsir koʻrsatilsa, Tashkilotchi bir tomonlama tartibda Aksiyani toʻxtatish yoki toʻxtatib turish yoki uning alohida Ishtirokchilarini chetlatish huquqiga ega.
- 3.15. Tashkilotchi soʻzsiz istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsiy ogohlantirmasdan tegishli maʼlumotlarni [www.tbcbank.uz](http://www.tbcbank.uz) veb-saytida joylashtirish orqali ushbu Qoidalarga oʻzgartirish va/yoki qoʻshimchalar kiritish yoki Aksiyani tugatish/toʻxtatib turish/bekor qilish huquqini oʻzida saqlab qoladi.
- 3.16. Aksiya oʻtkazish bilan bogʻliq barcha nizolar muzokaralar yoʻli bilan hal qilinadi. Tinchlik yoʻli bilan kelishuvga erishishning imkoni boʻlmagan holatlarda, nizo Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq koʻrib chiqilishi kerak.
- 3.17. Aksiya Ishtirokchisi Aksiya oʻtkazish muddati davomida TBC UZ mobil ilovasida Ucell shaxsiy hisobiga 30 000 soʻmdan boshlab har bir toʻlov uchun Aksiya doirasida "Internet-toʻplam" muvaffaqiyatli taqdim etilgan ushbu toʻlovlarni bekor qilish mumkin emasligiga oʻz roziligini beradi, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.
- 3.18. Aksiya "Sof 150", "Special Unlim" va "Special Unlim Turbo", "NEW 300" va "NEW 500" tarif rejalaridan foydalanadigan abonentlar uchun amal qilmaydi.